“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=310

2025-yil
2-son
iyul
ISSN 3093-8546



Tovar belgisiga nisbatan parallel import siyosatini qo‘llashning ahamiyati: xalqaro, mintaqaviy va milliy tajriba

Furqat Utapov,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi
Huquqshunos
e-mail: utapov.furkat@mail.ru

Аннотация. Mazkur maqolada tovar belgisiga nisbatan huquqlarni tugashi tamoyili, uning turlari, xususan milliy, mintaqaviy va xalqaro tamoyillar, ularning ahamiyati, ushbu tushunchaning milliy va xorijiy qonunchilik hamda Jahon Savdo Tashkilotining TRIPS bitimi normalari bilan o‘zaro uyg‘unligi haqida so‘z borgan. Shu bilan birga, mazkur maqolada tovar belgisiga bo‘lgan huquqlarni himoya qilishning asosiy tamoyillarining zamonaviy usul va mexanizmlari haqida bayon etilgan.

Калит сўзлар. Milliy, mintaqaviy va xalqaro parallel import, huquqlarni tugashi, birinchi sotuv doktrinasi.

Аннотация. В данной статье рассматривается принцип прекращения прав на товарный знак, его виды, в частности национальные, региональные и международные принципы, их значение, взаимосвязь данного понятия с национальным и зарубежным законодательством и нормами соглашения ТРИПС. Вместе с тем, в данной статье изложены современные методы и механизмы защиты основных принципов защиты прав на товарный знак.Ключевые слова:национальный, региональный и международный параллельный импорт, прекращение прав, доктрина первой продажи.

Ключевые слова. Национальный, региональный и международный параллельный импорт, прекращение прав, доктрина первой продажи.

Annotation. This article examines the principle of termination of trademark rights, its types, in particular national, regional and international principles, their significance, the relationship of this concept with national and foreign legislation and the TRIPS Agreement. At the same time, this article outlines modern methods and mechanisms for protecting the basic principles of trademark rights protection.

Keywords. National, regional and international parallel imports, termination of rights, first sale doctrine.

“Bugungi kunda jahon iqtisodiyotining salmoqli qismini milliy mahsulotlar eksporti tashkil etadi. Ma’lumki, mahsulot va xizmatlar o‘z brendining mashhurligiga asoslanadi. Shu sababli, ko‘plab mamlakatlar hukumatlari, brendlari iste’molchilar tomonidan tan olingan va yuqori baholangan mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha faol ishlamoqda. Shu bilan birga, xorijiy mamlakatlarda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqaruvchilarning tovar belgilari (brendlari) himoyasini ta’minlash alohida ahamiyatga ega”[1].

Ma’lumki, huquqlarni tugashining hudud nuqtayi nazaridan hamda amaliyotdan kelib chiqqan holda xalqaro, milliy va mintaqaviy turlarga bo‘lgan holda o‘rganiladi. Ushbu tamoyillarning har birini ular amalda bo‘lgan huquqiy tizimlardan kelib chiqib tegishli sud amaliyoti va normativ-huquqiy munosabatlarni tartibga solish tajribasidan kelib chiqib tushunish kerak.

Ularning har biri, o‘zining xususiyatlari, ijobiy va salbiy jihatlariga ega. Ahamiyatlisi, TRIPS bitimi JST a’zo-davlatlariga parallel import turlarini tanlashda biron-bir cheklovni nazarda tutmaydi hamda parallel importni tartibga solishda milliy manfaatlardan kelib chiqib mamlakat ichki qoidalari bilan tartibga solishni taqdim etadi.

Mintaqaviy tamoyil. Mutlaq huquqlarning mintaqaviy tamoyili bir necha mamlakatlar hududlariga, masalan, ittifoqlarga (Yevropa ittifoqi, YevroOsiyo iqtisodiy ittifoqi kabi) nisbatan qo‘llaniladi. Bunday holda, ittifoqning bir qismiga tovarlarni olib kirilishi butun ittifoqda huquqlarning yo‘qolishiga olib keladi.

Ba’zi mutaxassislari ushbu yo‘nalishni milliy va xalqaro tamoyil o‘rtasidagi oraliq yo‘nalish sifatida keltirishgan va u ayrim hududlargagina (YI, YOII) tatbiq etililishligi bilan ajralib turishligini bildirishgan [2].

Yevropa ittifoqi tovar belgilariga nisbatan huquqlarni tugashining mintaqaviy modeli amalda hisoblanadi. Bu shuni anglatadiki, tovar belgisiga nisbatan huquqi egasining ruxsati faqat ushbu tovar belgisi ostidagi mahsulotlarni Yevropa ittifoqi hududiga olib kirish uchungina talab qilinadi [3].

Ittifoq mamlakatlari o‘rtasida esa tovarlarni olib kirish erkin amalga oshiriladi va tovar belgisi egasi tomonidan cheklanishi mumkin emas. Xususan, Yevropa parlamenti va Yevropa ittifoqi kengashining 2008-yil 22-oktabrda Strasburgda qabul qilingan “Tovar belgilari va xizmat ko‘rsatish belgilariga nisbatan a’zo-mamlakatlar qonunchiligini moslashtirish haqida”gi 2008/95/-son direktivaga ko‘ra, huquq egasi Ittifoq hududida u tomonidan yoki uning roziligi bilan fuqarolik muomilasi jarayonlariga kiritilgan tovarlarni ta’qiqlash huquqiga ega emas [4].

Mintaqaviy tamoyil haqida gap ketganda, so‘zsiz YOII amaliyotini o‘rganishi maqsadga muvofiq. Zero, YEOIIga a’zo-mamlakatlar amaliyoti o‘ziga xos xususiyatga ega hisoblanadi.

Sababi aslida mintaqaviy tamoyil qoidalari qo‘llanilishi o‘rniga ayrim hollarda milliy tamoyilni qo‘llanilmoqda. Ma’lumki, 2015-yil 1-yanvardan Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi to‘g‘risidagi shartnoma kuchga kirgan va ushbu shartnoma bilan bir vaqtning o‘zida “Intellektual mulk obyektlariga nisbatan huquqlarni muhofaza va himoya qilish haqidagi bayonnoma” tasdiqlangan . Mazkur bayonnomaning 16-bandida quyidagacha keltirilgan: “A’zo-mamlakatlar hududlarida tovar belgisining mutlaq huquqlariga nisbatan huquqlarni tugashi tamoyili qo‘llaniladi”. Ushbu holatda ham xuddi Yevropa ittifoqi kabi amaliyot qo‘llaniladi, ya’ni a’zo-mamlakatlardan birida huquq egasi yoki uning roziligi bilan fuqarolik muomilasi jarayoniga qonuniy kiritilgan tovar belgisi ostidagi mahsulot ittifoqqa a’zo bo‘lgan boshqa mamlakat hududiga uchinchi shaxslar tomonidan olib o‘tilgan taqdirda huquqlarni buzilishi sifatida e’tirof etilmaydi.

Mintaqaviy huquqlarni tugashi tamoyilining o‘ziga xos xususiyati shundaki, huquq egasining muayyan tovarlarga nisbatan tovar belgisiga bo‘lgan mutlaq huquqi, bunday tovarlar huquq egasining o‘zi yoki uning roziligi bilan ma’lum bir hududda fuqarolik muomalasiga kiritilgan paytdan boshlab tugaydi; ya’ni, huquq egasi ushbu tovar belgisidan bunday tovarlarga nisbatan foydalanish, bunday tovarlarga nisbatan mutlaq huquqni tasarruf etish, shuningdek boshqa shaxslarga tovar belgisidan foydalanishni ta’qiqlash uchun mutlaq huquqni yo‘qotadi [5].

Shu sababli Ittifoqqa a’zo-mamlakatlar milliy qonunchiligida “tovar belgisidan foydalanish” atamasi juda keng ma’noda tushuniladi. Zero, ushbu tushuncha (iste’molchi va “olib-sotuvchi” nuqtayi nazaridan)ga ko‘ra, tovar belgisiga nisbatan mutlaq huquqlar egasi tomonidan huquqlar tugagandan keyin ushbu tovarlarga nisbatan biron-bir ta’qiqlash harakatini amalga oshirolmasligi tushuniladi.

Ushbu holatda e’tibor qaratiladagin 2ta muhim jihat mavjud. Birinchidan, tovar belgisi bilan muhofazalangan tovarni fuqarolik muomilasi jarayoniga bevosita huquq egasi yoki borshqa shaxslar tomonidan uning roziligi bilan kiritilishi kerak. Ikkinchidan esa YOIIga a’zo-mamlakatlar hududi (Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Qozog‘iston, Qirg‘iziston)da fuqarolik muomilasiga kiritilishi kerak. Agarda ushbu talabalaridan ikkisi yoki bittasi bajarilmagan taqdirda huquq egasi tovar harakatini ta’qiqlash huquqiga ega hisoblanadi.

Boshqacha so‘z bilan aytganda, tovar huquq egasining roziligi lekin YEOIIdan tashqarida yoki YEOIIda tvoar belgisi egasining roziligisiz kiritilgan bo‘lsa ushbu harakatlar noqonuniy hisoblanadi.

Ittifoqqa a’zo davlatlarning milliy qonunchiligida “tovar belgisidan foydalanish” atamasi bilan birga keladigan harakatlarning juda keng ro‘yxati ko‘zda tutilganligi sababli, ular orasida eng muhimlaridan biri (iste’molchi va sotuvchi nuqtayi nazaridan) tovarlarni ishlatish va sotish hisoblanadi. Tovar belgisini belgilash, bu holda yeksklyuziv huquqning tugashi mualliflik

huquqi yegasining huquqining yo‘qolishi tovar belgisi bilan tovarlarni yanada ishlatish va sotishni taqiqlashni anglatadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish jarayoni kechmoqda. “Ma’lumki, JST jahon iqtisodiy tizimidagi xalqaro global tashkilot hisoblanib, jahon savdosining 90 foizidan ortig‘i aynan JST doirasida olib borilmoqda. Shu sababli ham mazkur xalqaro tashkilotga a’zo bo‘lish mamlakatimiz tashqi iqtisodiy siyosatining eng asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda”[6]. Bu borada O‘zbekiston oldida intellektual mulkning himoyasi bilan bir qatorda tovar belgilariga doir parallel import bilan bog‘liq masalalarni hal qilish vazifasi turibdi.

O‘zbekistonda ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan ta’minlash hamda eksportga yo‘naltirilayotgan milliy mahsulotlarimizni huquqiy jihatdan muhofazasini ta’minlash maqsadida intellektual mulk sohasidagi xalqaro normalar va JSTning TRIPS bitimi normalaridan kelib chiqqan holda parallel importga doir yagona tartibini joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jihat ayni O‘zbekistonning JSTga a’zolik jarayonidagi milliy qonunchiligimizga TRIPS bitimi normalarini uyg‘unlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi[7]. Zero, intellektual mulkning yuqori darajada himoyalanganlik darajasi mamlakatning investitsion jozibadorligi va tashqi imidjini oshirishning muhim kafolati hisoblanadi[8].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdugopirovich Y. A. Types Of Legal Protection Of A Trademark (Service Mark) In Foreign Countries: The Example Of The Madrid System //Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT). – 2021. – Т. 12. – №. 4. – С. 1068-1073.

2. О.В. Сивинцева. Вариации международного режима исчерпания права на товарный знак в крупнейших экономиках мира.

3. Договор о функционировании Европейского союза (Рим, 25 марта 1957 г.) (в редакции Лиссабонского договора 2007 г.) // Информационный портал «Право Европейского союза». URL:

4. Директива N 2008/95/ЕС Европейского парламента и Совета Европейского Союза «О сближении законодательств государств-членов в отношении товарных знаков и знаков обслуживания» // Принята в г. Страсбурге 22 октября 2008 г.

5. Исчерпание прав на товарные знаки на территории ЕЭС.

6. Тўракулова Н., Юлдашов А. Интеллектуал мулк ҳуқуқи ҳимоя қилиш механизмини такомиллаштиришда халқаро шартномаларнинг ўрни ва аҳамияти //Conferencea. – 2022. – С. 467-471.

7. Yuldashov A. Intellectual property law policy in Uzbekistan //Global Scientific Review. – 2023. – Т. 12. – С. 80-85.

8. Юлдашов А. Интеллектуал мулк бўйича миллий стратегияларнинг аҳамияти ва бутунжаҳон интеллектуал мулк ташкилотининг бу борада тутган ўрни //Юрист ахборотномаси. – 2020. – Т. 1. – №. 2. – С. 53-59.